



journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

INTERACTIVE EXERCISES USED IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF FINNISH

Feruza Asrorovna Xamroyreva

Head of the Department of Biology and Geography

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: hamroyeva87@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: interactive exercise, collaborative work, problem assignments, teamwork, communication, project, experience, innovation, efficiency.

Received: 26.11.23

Accepted: 28.11.23

Published: 30.11.23

Abstract: This article provides information on interactive exercises used in the Finnish education and training system, such as Treasure Hunt, Interviews, Obstacle Jumping, Chain Picking, Fun Quizzes, Interrail, Problem Solving, Teamwork and Communication, Project Management information is widely covered.

FINLANDIYA TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL MASHQLAR

Feruza Asrorovna Xamroyreva

Biologiya va geografiya kafedra mudiri

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: hamroyeva87@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: interfaol mashq, hamkorlikda ishslash, muammoli topshiriqlar, jamoaviy ish, muloqot, loyiha, tajriba, innovatsiya, samaradorlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Finlandiya ta'limi va ta'lim tizimida qo'llaniladigan interfaol mashqlardan Xazina ovi, Intervyular, To'siqlardan o'tish, Zanjir terish, Qiziqarli viktorinalar, Interrail, Muammoni hal qilish, Jamoada ishslash va muloqot, Loyihani boshqarish kabi usullar haqida ma'lumotlar keng yoritilgan.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ УПРАЖНЕНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ФИНЛЯНДИИ

Феруза Асроровна Хамройрева

Заведующий кафедрой биологии и географии

Узбекско-Финляндский педагогический институт

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	интерактивное упражнение, совместная работа, проблемные задания, командная работа, общение, проект, опыт, инновации, эффективность.	Аннотация:	В этой статье представлена информация об интерактивных упражнениях, используемых в финской системе образования и обучения, таких как Охота за сокровищами, Интервью, Прыжки с препятствиями, Сбор цепочек, Веселые викторины, Interrail, Решение проблем, Работа в команде и общение, Информация об управлении проектами широко освещена.
-----------------	---	------------	---

KIRISH

Ta'lim mazmumnini belgilashda o'qitish texnologiyasi va o'quvchiga beriladigan topshiriqlar aniq rejalashtirishni talab qiladi. Pedagog hozirgi zamonaviy dunyoda, zamonaviy yoshlar uchun qiziqarli dars jarayonini tashkil etishi muhum ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'qituvchi ilm-ma'rifatli kadrlar tayyorlash, o'quvchilarni turli sohalarga yo'naltirish, uzlusiz ta'lim jarayonlarida islohotlarni amalga oshirish, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash, xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish, ta'lim jarayonini yangilash, o'qitish metodikasi, shakl va metodlarini qo'llashda ilm-ma'rifatga asoslanish kabilarni amalga oshirishga mas'ul shaxs hisoblanadi. Shu boisdan xalqaro jahon tajribasini o'rganish va xalqaro ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlarni tahlil etish dolzarb hisoblanadi. Butun dunyo mamlakatlari o'qituvchilarini va siyosatchilarining diqqat markazida bo'lgan ta'lim- Finlyandiya ta'lim tizimidir [1]. Finlandiya ta'lim tizimi sifat va samara jihatidan dunyoda yetakchi sanalib fin o'quvchilari ham tabiiy, ham gumanitar fanlarda har yili birdek yuqori ko'rsatkichlarni qayd etadilar. Mazkur davlat ta'lim tizimi muvaffaqiyatining siri birinchi navbatda albatta pedagoglardagi o'z ishiga yuqori mas'uliyatli hamda ijodkorona yondashuv, shuningdek bilim berish bilan birga uni hayotga mustaqil tatbiq etish qobiliyatini ham o'quvchilarda parallel shakllantirib borishda mujassam deyish mumkin.

Finlandiyada o'qituvchilik kasbi orzu qilinadigan kasb hisoblanadi. Abituriyentlarning atiga 10-15 foizi o'qituvchi talaba sifatida tanlanadi[2].

Finlandiyada o'qituvchilar o'zlarini o'qitadigan fanlar bo'yicha tadqiqotning eng so'nggi yutuqlari haqida chuqur bilimga ega bo'lishi hamda o'quvchilarning fanlararo tadqiqotlar olib borishiga asos bo'ladigan o'qitish usullaruni ishlab chiqishi kerak [3].

O'qituvchilar pedagogik mahoratini oshirib borishi hamda fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yangilashi, innovatsion tajribalar va tadqiqotlar orqali o'z faoliyatidagi muammolarga javob izlashi kerak [4].

ASSOSIY QISM

Finlandiya ta’lim jarayonida interfaol mashqlar- turli o‘quv jarayonida ko‘p qirrali o‘rganishni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Bu mashqlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga va o‘z ta’lim jarayoni haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Interfaol mashqlar xilma-xil bo‘lishi va o‘quv maqsadlarining keng doirasini qamrab olishi mumkin. Ular guruh muhokamalari, amaliy mashqlar, rolli o‘yinlar, muammolarni hal qilish vazifalari va boshqa ko‘plab funksialarni bajarishi va Butun sinf o‘quvchilarini ishtirokchi sifatida o‘z ichiga qamrab olishi mumkin. Quyida Finlandiya ta’lim jarayonida keng qo‘llaniladigan interfaol mashqlardan namunalar keltirilgan:

Xazina ovi. Ushbu interfaol mashqda ishtirokchilar guruhlarga bo‘linib, kim ekspert va kim xazina izlovchi bo‘lishini hal qiladilar. Shundan so‘ng ular birgalikda savol tuzadilar. Savollar shakllantirilgandan so‘ng, mutaxassislar o‘z joylarida qoladilar va xazina izlovchilari o‘z guruhining savoliga javob olish uchun ya’ni “ov” qilish uchun boshqa guruhlarga boradilar. Javoblarni yozib, keyinroq o‘z guruhi bilan baham ko‘rishi uchun yon daftarcha yoki qandaydir eslatmani yozib olish moslamasini oladi. Har bir guruhning xazina izlovchilari o‘z guruhining savollari bilan birgalikda bir guruhdan ikkinchisiga, masalan, soat yo‘nalishi bo‘yicha aylanib o‘tadi. Ovdan so‘ng, xazina izlovchilari topilgan xazinalarni mutaxassislarga taqdim etish uchun o‘z guruhiga qaytdilar. Nihoyat, har bir guruh o‘zlari olgan javobni boshqa guruhlarga taqdim etilgan shaklda umumlashtiradilar.

Intervyular. Ushbu interfaol mashqda “mutaxassis” bilan suhbat o‘tkaziladigan mavzu tanlab olinadi. Suhbatdosh mavzuga yoki suhbatdoshga ko‘ra mavzu tanlaniladi. Ekspert ishtirokchilardan biri yoki tashqi mehmon bo‘lishi mumkin. Intervyularni juftliklar yoki kichik guruhlar o‘rtasida olib boriladi. Bu holda bir mavzu bo‘yicha yanada kengroq ma’lumot olinadi. Boshqa tomondan, bir xil savollarga turli nuqtayi nazardan javob olishi ham mumkin

To‘sqlivardan o‘tish. Ushbu interfaol mashqda dastlab, maqsad aniqlanadi. Shundan so‘ng, maqsad savol shakliga o‘zgartiriladi. Masalan: “Bizni rivojlanishimizga nima to‘sinqilik qilmoqda ...”. Ishtirokchilar aqliy hujum tamoyillaridan foydalangan holda kichik guruhlarda muammo haqida o‘ylashlari mumkin. To‘sqliar oson, o‘rta va qiyin yoki imkonsiz to‘sqliarga bo‘linadi. To‘sqliar kichik guruhlar o‘rtasida taqsimlanadi va har bir kichik guruh o‘zlari olgan to‘sqliarni yechim izlayotgan savol shaklida o‘zgartiradilar. Butun guruh bilan birgalikda eng yaxshi yechimlar tanlanadi va chora-tadbirlar kelishib olinadi.

Zanjir terish. Zanjir yozish individual ish sifatida boshlanadi. Har bir kishi, masalan, besh daqiqa davomida muhokama qilinayotgan mavzu haqida xayoliga kelgan narsani yozadi. Fikrlar yozib bo‘lingandan so‘ng, soat yo‘nalishi bo‘yicha keyingi ishtirokchiga ishslash uchun beriladi. Shunday qilib, har bir ishtirokchi boshqa ishtirokchidan matn oladi. Ularning vazifasi matnni

oldingi muallif qoldirgan joydan davom ettirishdir. Ularning vazifasi matnga sharh berish yoki uni o‘z nuqtayi nazari bilan to‘ldirishdir. Nihoyat, matn bir yoki bir nechta mualliflar orqali tarqalgach, u asl egasiga qaytadi. Shundan so‘ng, butun guruh boshqalarning yozuvlaridan ular uchun qanday tushuncha va fikrlar paydo bo‘lganligini muhokama qilishlari mumkin

Qiziqarli viktorinalar. Mavzuga oid bilim viktorinasi yordamida ijobiy muhit yaratish va ishtirokchilarni faollashtirish. Viktorinadan ishtirokchilarning o‘qitilayotgan fan bo‘yicha oldingi bilimlarini tekshirish uchun ham foydalanish mumkin. Qiziqarli viktorinalar fikrlash qobiliyati kengaytiradi, tezroq o‘rganishga, qiyin vaziyatlarni hal qilishga, ijodiy fikrlashga yordam beradi.

Interrail. Mashq ishtirokchilar bilan tanishishga yordam beradi, “muzni buzadi” va suhabatni ochadi. Mashq orqali ishtirokchilar ish yoki ta’lim mavzusidan tashqari boshqa masalalarni muhokama qilish uchun birlashtiriladi. Bu ishonchni yaratishga yordam beradi va o‘zaro munosabatlarni yumshatadi.

Masalan: Guruh a’zolari bir-birlari bilan tanishadilar va sayohat qilish joylarini aytadilar. Topshiriq turli xil tarkiblarga qo‘llanilishi mumkin. Masalan: Sevimli taom, futbol, va hokazo

Muammoni hal qilish. Ushbu interfaol mashq talabalarning biznesdag‘i muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. O‘qituvchi talabalarga korxonalarining daromad muammosi, mijozlar ehtiyojini qondirishning pasayishi yoki bozorda raqobatchilarning ko‘tarilishi kabi biznes muammolarini taqdim etadi. Qiyinchilik haqiqiy yoki xayoliy bo‘lishi yoki mashg‘ulot davomida o‘qitiladigan mavzu bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Talabalar kichik guruhlarga bo‘linib yoki topshiriqni individual ish sifatida bajaradilar. Har bir guruh yoki talaba muammo bilan shug‘ullanadi va yechimlarni taklif qiladi. Talabalar muammoni hal qilish uchun SWOT (kuchli tomonlar, zaif tomonlar, imkoniyatlar, tahdidlar) tahlili, asosiy sabablarni tahlil qilish, rejalashtirish va amalga oshirish bosqichlari kabi muammolarni hal qilish jarayonidan foydalanadilar. Shuningdek, ular innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun aql xaritalari, aqliy hujum yoki rol o‘ynash kabi ijodiy fikrlash usullaridan foydalanishlari mumkin. Guruhlar yoki talabalar o‘zları yaratgan yechimlarni taqdim etadilar va o‘z tanlovlарini asoslaydilar. Taqdimotlar kichik guruhlarda yoki butun guruh oldida o‘tkazilishi mumkin. O‘qituvchi guruhlar yoki talabalarga ularning yechimlari haqida fikr bildiradi va rivojlanish bo‘yicha mumkin bo‘lgan takliflarni beradi. Guruhlar yoki talabalar ham bir-birlarini muhokama qilishlari va fikr bildirishlari mumkin. Muammoli topshiriqlar o‘quvchilarga o‘rganganlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash va muammoni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Muammoni hal qilish ijodiy fikrlash va innovatsiyalarni rivojlantiradi.

Jamoada ishlash va muloqot. Ushbu interfaol mashq talabalarning guruhda jamoaviy ishslash va muloqot qilish qobiliyatini oshiradi. O‘qituvchi guruhga jamoaviy ish va muloqotning ahamiyati, turli jamoaviy ish modellari va tegishli muammolarni taqdim etadi. Shuningdek, u

yaxshi jamoaviy ish va muloqot muhim bo‘lgan vaziyatlarga misollar keltiradi. Guruh kichikroq muhokama guruhlari yoki juftliklarga bo‘linadi va ular berilgan mavzuni muhokama qilishadi. Ular jamoaviy ish va muloqot bo‘yicha o‘z tajribalari va qarashlari bilan o‘rtoqlasha oladilar va o‘zlarining ish muhitida yoki o‘qish muhitida nima yaxshi va nima yomonligi haqida fikr yuritishlari mumkin. O‘qituvchi munozara guruhlariga turli savollar yoki mulohaza yuritish ko‘rsatmalarini beradi. Masalan: “Guruhimizning jamoaviy ishini qanday yaxshilashimiz mumkin?”, “Jamoamizdagi eng qiyin muloqot nima?” yoki “Muloqotni yaxshilash uchun qanday usullardan foydalanishimiz mumkin?”. Munozara guruhlari jamoaviy ish va muloqotni yaxshilash uchun o‘z g‘oyalari va yechimlarini taqdim etadilar. Fikrlar doskada yoki boshqa umumiy platformada yozib olinadi, shunda ularni ko‘rib chiqish va keyinroq ishlatish mumkin. O‘qituvchi muhokamani umumlashtiradi va guruhlarga o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi. Shuningdek, u jamoaviy ish va muloqotni yaxshilash uchun qo‘sishimcha maslahatlar va tavsiyalar beradi. Guruh muhokamasi talabalarga jamoaviy ish va muloqot bo‘yicha o‘z tajribalari va qarashlari bilan bo‘lishish va bir-biridan o‘rganish imkoniyatini beradi. Munozara talabalarni jamoada ishslash qobiliyatlarini aks ettirish va tahlil qilishga yo‘naltiradi.

Loyihani boshqarish. Ushbu interfaol mashq loyihani boshqarish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantiradi. O‘qituvchi talabalarga loyihani boshqarish bo‘yicha asosiy ma’lumotlarni taqdim etishi va rejalshtirish, resurslarni boshqarish va jamoaviy ish kabi muhim ko‘nikmalarni ta’kidlashi mumkin. Ishtirokchilar kichikroq guruhlarga bo‘lingan va loyiha menejeri, resurs menejeri, jadval menejeri va boshqalar kabi turli loyiha jamoalari a’zolari sifatida rollar beriladi. Ishtirokchilar loyihaning turli jihatlari bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishlari kerak, masalan, rejalshtirish, resurslarni boshqarish, byudjetlashtirish, boshqarish va hokazo. O‘yin davom etar ekan, ishtirokchilar strategik qarorlar qabul qilishlari va loyihani boshqarish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishlari kerak. O‘yin tugagandan so‘ng, o‘qituvchi ishtirokchilarga o‘yin natijalari haqida fikr bildiradi. U muvaffaqiyatli qarirlarni ta’kidlashi va yaxshilash bo‘yicha maslahatlar berishi mumkin. Ishtirokchilar o‘yinni muhokama qilishlari va o‘rganganlari haqida fikr yuritadilar. O‘qituvchi “Biz bu o‘yindan nimani o‘rgandik?”, “Loyihani boshqarishning eng qiyin qismi nima edi?” kabi savollarni berish orqali talabalarning fikr mulohazalarini tinglaydi.

XULOSA

Finlyandiya ta’limining muvaffaqiyati ortida tenglik va izchil, birgalikdagi sa’y-harakatlardir. Finlar ta’limga oid yangiliklarni, innovatsiyalarni darhol ta’lim tizimiga tatbiq etadi. Buning natijasida fin ta’lim tizimi doimiy ravishda rivojlanmoqda, o‘zgarishlarga uchramoqda. Finlyandiyada faqat o‘qituvchi dars bermaydi. Talabalar turli interfaol mashqlar orqali ham bir-birlaridan o‘rganadilar. O‘qituvchilar sinfda umumiy tajriba va hamkorlikni targ‘ib qilish uchun o‘qitiladi. Shuning uchun talabalarning birgalikda ishlashi mamlakat o‘qituvchilari uchun ustuvor

vazifadir. Demak, ta'lim jarayonidagi interfaol mashqlar o'quvchilarga o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ta'lim samaradorlogini yuqori darajaga ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. О. Кўйсинов, Ф.Хамроева Финляндия тажрибаси: узлуксиз таълим муваффакияти ўқитувчилар тайёрлаш тизимига боғлиқ. Янги Ўзбекистон. Ижтимоий-сиёсий газета. № 122 (911), 2023 йил 21 июнь.
2. Satu Uusiautti, Kaarina Määttä. Kuinka kouluttaa hyviä opettajia suomalaisiin yliopistoihin? Opettajaopiskelijoiden koulutusprosessi ja opettajien rooli siinä. EUROPEAN JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH. International Journal of Environment and Science Education. ISSN 2165-8714. 2012 EUGER
3. H.Niemi, R.Jakku-Sikhvonen Tutkimuspohjainen opettajankoulutus. Tutkimuspohjainen opettajankoulutus Suomessa - Suomalaiset opettajat mielipiteitä (sivut 31-50). Turku: Kasvatustutkimuksen liitto. 2006
4. Välijärvi, J. (2012). Suomen koulutusjärjestelmän historia ja nykyaika. Kiina-Suomi koulutusjärjestelmäseminaarissa paperi esitely, Shanghai, 31. toukokuuta - 2. kesäkuuta 2012.
5. <https://tevere.fi/plus-minus-interesting-pmi>